

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2025

DEHQONCHILIK VA FAQR TARIYQI

Shoyimova Gulshoda

Buxoro davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

+998 90 510 84 66

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida dehqonchilik va faqr tariyqi xususida so‘z boradi. XV asrda Hirotda dehqonchilikka e’tibor boshqa davrlarga nisbatan yuksak maqomga ko‘tarilgan.Bir qator asarlarda ham dehqonga e’tibor o‘z aksini topgan.Xususan, Navoiy asarlarida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgani maqoladagi tahlillarda ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: yashil maydon, Boburnoma, faqir va dahqanat, “fazoyil va kamolot”, Shayx Ziyoratgohiy

Ilm va badiiy ijod ahlining dehqonchilikka munosabati bilan aloqador lavhalar Alisher Navoiy asarlarida ko‘p kuzatiladi.

Umuman, XV asrda Hirotda “yashil maydon” ga e’tibor boshqa davrlarga nisbatan yuksak maqomga ko‘tarilgan. Tarixiy-adabiy manbalarda bu haqda nodir ma’lumotlar mavjud. Ana shunday manbalardan biri Muiniddin Muhammad Isfizoriyning 2 jilddan iborat “Ravzat al jannat fi avsofi Madinatal Hirot” (Jannatmakon Hirot va uning madaniy hayoti vasfi) kitobidir. Muhammad Isfizoriy mazkur kitobida Hirotda barpo etilgan o‘nlab mashhur bog‘lar haqida mulohaza yuritadi. Xususan, “Bog‘i Jahonoro”, “Bog‘i Dilkusho”, “Bog‘i Safid”, “Bogi Nav”, “Bog‘i Chamanoroy”, “Bog‘i Xiyobon”, “Bog‘i Guzurgoh” kabilarning vasfi badiiy asarlarda chuqur iz qoldirganini qayd qiladi. Muhammad Isfizoriy talqinlari tarixiy haqiqatga to‘la rost kelishi yuqorida Alisher Navoiy “Xamsatul-matahayyirin” asaridan keltirilgan hayotiy lavhalarda yorqin namoyon bo‘ldi. O‘scha tarixiy haqiqatlarni Zahiriddin Muhammad Bobur ma’lumotlari bilan yana quvvatlantirish mumkin: “Boburnoma”ning 1506-1507-yil voqealari bayoniga bag‘ishlangan sahifalardan o‘qiyimiz: “**Bog‘i Jahonoro**”da Badiuzzamon Mirzog‘a ko‘rinish qilur edim. Necha kundin so‘ng Muzaffar Mirzo uyiga chorladi. Muzaffar Mirzo “**Bog‘i Safid**”da o‘lturur edi. [2;170]. Ko‘rinadiki, otalari Husayn Boyqarodan keyin Xuroson mamlakatini sherikchilik bilan idora etayotgan aka-uka Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo poytaxt Hirotning eng muhtasham joylari-Bog‘i Jahonoro” va “Bog‘i Safid”ni o‘zlariga qarorgoh qilganlar. Poytaxtga tashrif buyurgan nufuzli mehmon ona tabiatning shu so‘lim go‘shalarida qabul qilinib, uning sharafiga ziyofat uyuşhtirilgan: “Hadichabegim ham anda (“Bog‘i Safid”-G.Sh.) edi...Hadichabegim qoshida osh va taom tortildi...” [2;170]. Shu bog‘lar tufayli Hirotning zeb-u ziynati birga o‘n, balki yigirma taraqqiy qilib (Bobur), barcha uni ko‘rmoq orzusi bilan yashagan. Buyuk mutafakkir “Majolisun-nafois” tazkiräsining “Xurosonning va ba’zi yerning Mirzodalarini va soyir ozodalari zikridakim, tab’ salomati va zihn istiqomati alarg‘a boisi nazm bo‘lur, ammo mudovamat qilmaslar” sarlavhasi ostidagi beshinchchi fiqrasi debocha, yetti tabaqot (bob), xotimadan tarkib topib, bir yuz ellik bir shoir haqida ma’lumot berilgan “Tazkiratush- shuar” tazkirasi muallifi Amir Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-G‘oziy Samarcandiy (1437-1497) ga bag‘ishlangan maqola bilan boshlangan. “Majolisun-nafois” dagi qaydlarga ko‘ra, Davlatshoh Samarcandiy mansub bo‘lgan sulola vakillari temuriylar davri davlat tizimida juda katta mavqe’ va nufuzga ega bo‘lgan. Alisher Navoiy ishoralari tarixiy manbalardagi ma’lumotlar bilan ham to‘la muvofiq keladi. “Tazkiratush-shuar” muallifining ota-bobolari jahongir Amir Temur farmoni bilan 1397-yildan 1405-yilgacha Xuroson hukmdori sifatida Xuroson, Seyiston va Mozandaronni boshqargan, 1409-yildan hayotining oxiriga qadar (1447) Movorounnahr, Ozarbayjon, Iroq, Xuroson va Shimoliy Afg‘onistondan tarkib topgan yirik imperiyada “ulug‘ xoqon” sifatida saltanat surgan Shohruh Mirzo (1377-1447) saroyida davlat idorasini hamda

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2025

nufuzli harbiy lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan. Amir Davlatshoh ota-bobolarining an'analarini davom ettirib, qisqa muddat (1471-yilgacha) Sulton Husayn Boyqaro xizmatida bo'lgan. Keyinchalik esa saroy xizmatidan o'z ixtiyori bilan voz kechib, xilvatda darveshona, faqirona hayot kechirgan. Ota mulkida dehqonchilik qilgan adabiy-ilmiy ijod bilan shug'ullangan. Davlatshoh Samarqandiying qanoat bilan yashab, dehqonchilik bilan kun ko'rganligi haqida Alisher Navoiy tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar muhim ilmiy qiymatga ega: "Valekin, Amir Davlatshoh xushtab' va darveshvash va ko'p salohiyatlari yigitdir. Obo va ajdodi tariyqidinkim, amorat va zohir azamat va tajammuli bo'lg'ay, kechib go'shayi ixtiyor qilib **faqir va dahqanat** bila qanoat qildi va fazoyil va kamolot iktisobi bila umr o'tkardi" [7;143] "Faqr va qanoat", "fazoyil va kamolot" hazrat Alisher Navoiyning komil inson g'oyasi bilan nurlangan asarlarida eng ko'p istifoda etiladigan mahbub va ulug'vor, axloqiy-ma'naviy tasavvurlardir. "Majolisun-nafois" dan ko'chirilgan iqtibosdan nazarga tashlanadiki, buyuk mutafakkir faqir ma'rifiy maqomi bilan yonma-yon, tengma-teng qo'yib, dehqonchilikni jamiiyki nozikliklari bilan tasvirlaydi. So'z tizginini faqr vodiysidin dehqonchilik adosiga ko'chirib, Amir Davlatshohni faqr tariyqi bilan dehqonchilik kasbini mohirona uyg'unlantirgan komil inson sifatida talqin qiladi. "Majolisun-nafois" dan keltirilgan jumla mantiqidan ayon bo'ladiki, faqr tariyqi va dehqonchilik insonning ruhiy-ma'naviy yuksalishiga ("fazoyil va kamolot iktisobi"ga) birday xizmat qiladi. Ulug' mutafakkirning bu kabi talqinlarini anglash uchun o'tkir nigoh va navoiyona chuqur g'oyalardan zavqlanadigan latif ko'ngil kerak bo'ladi. Faqir yo'lga kirgan darvesh ilohiy kamolot uchun mashaqqat tortgani kabi dehqon halol luqma yaratish uchun zahmat chekadi. Chinakam insoniy e'tiqodni halol kasb bilan uyg'unlashtirgan kishiga ma'rifat eshiklari ochiladi. Dehqonchilik faqir tariyqi kabi insonni Parvardigorga yaqinlashtiruvchi qudratli vositadir. Ayni g'oya Alisher Navoiy "Mahbubul-qulub" asarining "qanoat zikrida" gi to'rtinchchi bobida hamda nazariy mulohazalarni dalillash maqsadida shu bobda keltirilgan hikoyatda chuqur badiiy talqin qilingan. Alisher Navoiy talqinicha, faqlrik ibodatni ado etish madorini bag'ishlaydigan miqdordagi ozgina taom bilan kifoyalanib, moddiy dunyoning boshqa barcha ne'matlaridan voz kechmoqdir:"...ibodat quvvati hosil bo'lgancha qut bila o'tkarmakdur va ondin ortiq barchaning havasin xayoldin ketarmakdir" [11;74]. Yana solikdan nafsn bechorahollik ila ozurda tutmoq, shahvoniy hissiyotlarni so'ldirmoq ham talab qilinadi: "Va benavolig' bila nafsn ozurda tutmoqdur va mahrumlig' bila quvvoyi shahvoniysi pajmurda qilmoqdur" [8;74]. Hamida af'ol va zamima hisol xosiyati" sarlavhasi ostidagi ikkinchi bo'limning to'rtinchchi bobiga ilova qilingan hikoyat mag'zida kamtarinlik, poklik, qanoat va ma'rifat mujassam Shayx Shoh Ziyoratgohiy obrazi turadi. Shayx Shoh Ziyoratgohiyning kim ekanligi va qachon yashaganligi haqida Alisher Navoiy "Mahbubul-qulub" asarining mavjud nashrlarida aniq izoh berilmagan. Hikoyat quyidagi jumla bilan boshlangan: "Koshifiy asrori ilohiy Shayx Shoh Ziyoratgohiy (quddisa olloha sirrihu) ibodat farog'ati uchun qanoat shior qildi, Ziyoratgoh qasabasida maskan ixtiyor qildi". Ixcham jumla tarkibida mahorat bilan qo'llangan tazmini muzdavaj(ilohiy-Ziyoratgohiy, farog'at-qanoat), tajnis (Ziyoratgohiy Shayxning nomi, ismi, sharifi; Ziyoratgoh-o'rin-joy, yashash manzili ma'nosida) hamda musajja(shior-ixtiyor) san'atlari avliyouollohga xos xususiyatlarni ta'kidlab ko'rsatgan hamda dehqonchilik va qanoat g'oyasini yorqin ochishga imkon yaratgan. Jumla Hazrat Navoiyning o'zbek xalq nasri uslubiga xos xususiyatlarni, ham arab, fors-tojik nasrining poetik nozikliklarini yuqori darajada mukammal bilganligi, idrok qilganligi va ulardan amaliyotda san'atkorona foydalanganligini namoyon qiladi.

Pokiza axloqi, ma'naviy dunyosining nurafshonligi bilan Shayx Shoh Ziyoratgohiy timsoli mamlakat podshosi, arkoni davlat, oliyshon amrlar, yuksak maqomli vazirlardan tortib, oddiy xalqqa qadar o'z zamondoshlarini ma'rifat dunyosiga olib kirish ostonasiga qadami yetganlarda ozoda ko'ngilni tarbiyalash maqomida bo'lgan. Odamlar savob uchun yoki biror maqsad bilan Allah yo'liga atalgan narsalarni(qo'y, mol,pul) Shayxga nazir qilishga shohlar katta yer va mulkn doimiy foydalananish uchun Ziyoratgohiyga in'om qilishga intilganlar. Ammo bunday

harakatlarning barchasi behuda ketgan. Asardan o‘qiyimiz: “Va ulus nazr va xadyasin parvo qilmadi va salotin in’om va suyurg‘olin ko‘zga ilmadi” [10;36a] Shayx Ziyoratgohiy otabobolaridan o‘ziga meros bo‘lib qolgan arzimas kichkina yerga ekin ekip, mevali daraxtlar ko‘chatini o‘tqazgan. Dehqonchilik ishlariga hech kimni aralashtirmasdan, hech kimning kuchidan foydalanmasdan, ibodatdan bo‘sagan paytlarida bir o‘zi yakka tan bo‘lib, ishlagan, ketmon chopgan. Ekinlarga ishlov bergan, daraxtlar parvarishi bilan shug‘ullangan: “**Muvaqqar mavrusi muhavvatasig‘a ashjor tiki va ekin ekti. O‘z muborak iliki bila ekin suvorurg‘a bel urar erdi va ahjor tarbiyatig‘a tesha va arra surar erdi**” [2;36]. Hikoyat qahramonining surati va siyrati, harakati va holatini musajja’ san’ati (tiki-ekti, urar- surar) nihoyatda bejirim, tiniq aks ettirishga xizmat qilgan. Saj’- realistik holatini, valiy inson haqiqatini dehqon timsolida to‘la aks ettirishda muhim rol o‘ynagan. Keltirilgan tasvirda dehqon va dehqonchilikka xos sifat va mohiyatni anglatuvchi so‘zlar saj’langan bo‘lib, ular Shayx Shoh Ziyoratgohiy obraziga xos xislatlarni o‘rttirib ko‘rsatishiga xizmat qiladi. Alisher Navoiy pandnomasining “Hamida af’ol va zamima hisol xosiyati” sarlavhasi ostidagi ikkinchi qismining to‘rtinchi bobida “qanoat”, “faqr”ning ma’nodoshi sifatida qo‘llangan. “Qanoat zikri”ga bag‘ishlangan fasl va unga ilova qilingan hikoyat mantiqidan kelib chiqadigan qat’iy xulosa shuki, faqr tariyqi dehqonchilik bilan uyg‘unlashsa, olamda mo‘jiza yaratadi. Ixchamgina yeriga ekin ekip, shijoat va shavq bilan ishlagan Shayx Ziyoratgohiy kichkinagina zaminda mo‘l hosil yetishtirgan.

Aziz avliyouulloh faqr tariyqiga dehqonchilikni shunday tadbiq qila olganki, u shohdan gadogacha zamondoshlari nigohida qanoat ramzi, faqirning hayoti timsoliga aylangan: “Bu qanoat natijasi” “azza man qanaa hukmi bila ul yerga yetdukim, Hirot dor us-saltanasidin salotini masnadnishin va ulamoi din va mashoyixi ahli yaqin uch shar’i yo‘lni ul buzurgvor xizmatig‘a borur erdilar va ostoni tufrog‘in o‘pmak bila tafoxo‘r boshin falakdin o‘tkarur erdilar va ul ziroat nonidin va ul favokih jonidin har ne iliklarig‘a tutsa ko‘zlarig‘a surtib, qo‘yunlarig‘a solib, tabarruk uchun shahrg‘a ayol va atfollari uchun kelturur erdilar va andin yeganlar oxirat najotig‘a ham umidvor bo‘lur erdilar” [10;36a]

O‘z so‘zları mag‘zida Qur’oni karim oyatlari va hadisi sharif namunalarini asliyatda keltirish Alisher Navoiy she’riy va nasriy uslubiga xos xususiyat. Talmih san’atining bu nozik ko‘rinishi “Mahbubul- qulub” dan ko‘chirilgan jumlaning ibtidosida ham amal qilib, hikoyat mantig‘iga mos holda fikr va badiiy tasvir izchilligini ta’minlagan faqrning hayotiy timsoli avliyouullohni dehqonchilikning maqomini o‘z mehnati va shaxsiy ibrati bilan nihoyatda yuqori bosqichga ko‘targanini asoslashga chuqur zamin hozirlagan. Hadisning to‘liq matni quyidagicha: “Azza man’ qana’ va zalla man tama’”. Ulug‘ adib epik dostonlari, kichik janrdagi she’rlari, qasidalarini va nasriy asarlarida, ba’zan esa g‘azallarida ham mazkur hadisdan unumli va o‘rinli foydalanib, teran badiiy umumlashmalar yaratadi. Rasululloh (SAV) ning mazkur hadisi nasri murajjazning nodir namunasi bo‘lib, undagi mukammal shakl tahlil etilayotgan hikoyat zamirida turgan ma’noni ravon va oson o‘zlashtirishimi ta’min etadi. “Qanoat zikri” dagi bob uchun g‘oyaviy asos vazifasini bajargan hadisda yana bir necha o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Ulardan biri qat’iy hamvaznlikka asoslangan gap bo‘laklari tarkibida bir xil tovushlarning izchil qaytarilishi hisoblanib, “a” harfi hadis matnida o‘n bir marta takrorlangan. Asosiy g‘oyani ifodalovchi so‘zlar- “azza va zalla” dagi “z” harfining tashdid; “qana’ va tama” dagi so‘nggi “a” tovushining o‘ta cho‘ziq talaffuz etilishi hadisdagi musiqiylik va ta’sirchanlikni ko‘tarib, Payg‘ambar (SAV) so‘zining g‘oyat teran ma’noga ega ekanligiga o‘quvchi e’tiborini tortgan. Lafzdosh so‘zlarga asoslangan musajja’ qatorlari va ular tarkibidagi kalimalar mantiqan nihoyat darajada zid bo‘lib, bunday usul vasf qilinayotgan axloqiy-ma’naviy hodisa- qanoatning yorqin tasavvurini paydo qiladi va fikrning har tomonlama, atroflicha asoslanishiga olib keladi.

Dehqonchilik qilib “Qanoatli azizdir” (“Azza man’ qana”) hikmatini o‘z hayotining mazmuniga dasturiga aylantirgan. Shayx Ziyoratgohiyning ziyoratiga boruvchilarni Alisher Navoiy uch qismiga ajratib tasnif qiladi:

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2025

-
1. Shohlar, sultonlar, shahzodalar;
 2. Islom dini ulamolari;
 3. Shayx va valiyalar.

Uch shar’iy yo‘l bilan Shayx xizmatiga yetganlar uchun Ziyoratgohiy ostonasi tuprog‘ini o‘pish faxr hisoblangan. Shayx Shoh Ziyoratgohiyning o‘z qo‘li bilan yetishtirgan dehqonchilik mahsulotlaridan kimning qo‘liga nima tushsa, uni ko‘ziga surtgan. Qo‘yniga solib, asrab- avaylab, tabarruk uchun oila a’zolariga, farzandlariga olib borgan va ulardan iste’mol qilganlar oxiratda Yaratganning o‘zi najot berishidan umidvor bo‘lganlar.

Alisher Navoiy dehqonchilikni faqr tariyqining ziynati sifatida talqin qilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Ayniy S.Lug‘ati nimtafsilii tojiki baroi zaboni adabii tojik. Kulliyot. Jildi 12. Dushanbe:Irfon, 1976.- Sah.373.
- 2.Bobur Z.M. Boburnoma.- Toshkent: Yulduzcha,1990. - 367 b.
- 3.Far hangi zaboni tojiki.-Moskva ,1969. - 608 b.
- 4.Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos-ul-lug‘ot.Iborat az se jild, jildi I.- Dushanbe:Adib,1987.- 480 sah
- 5.Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos-ul-lug‘ot.Iborat az se jild, jildi II.- Dushanbe:Adib,1988.- 416 sah
- 6.Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos-ul-lug‘ot.Iborat az se jild, jildi III.- Dushanbe:Adib,1989.- 304 sah
- 7.Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 13-jild. - Toshkent:Fan, 1997. - 284 b.
- 8.Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 14-jild. - Toshkent:Fan, 1998. - 304 b.
- 9.Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 15-jild. - Toshkent:Fan, 1999. - 236 b.
10. علي شیر النوائی. محبوب القلوب. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли қўллўзма. – 121 в.
11. Навоий А. Махбубул-кулуб. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1983. – 112 б.